



## O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI ROA KO'RSATKICHI ORQALI BAHOLASH

*PhD Xannayev Sherzod*  
Tashkent International University  
ORCID: 0009-0004-0768-2814  
[sherzod\\_khannaev@outlook.com](mailto:sherzod_khannaev@outlook.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklari samaradorligini aniqlashda aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichini tahlil qilishga bag'ishlangan. Banklar samaradorligi moliyaviy tizim barqarorligi va iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda 1999-2023 yillarda mamlakat tijorat banklari faoliyati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, banklarning mulkchilik shakliga qarab samaradorlik darajalari farqlari o'rganildi. Davlat banklarining ROA ko'rsatkichi xususiy va xorijiy banklarga nisbatan past bo'lishi aniqlangan bo'lsa-da, xususiy banklar eng yuqori darajadagi samaradorlikni namoyish etgan. Bundan tashqari, bank faoliyatidagi beqarorlik va pandemiya ta'siri samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklar, samaradorlik ko'rsatkichlari, daromad, foyda, aktivlar, foiz.

## ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОКАЗАТЕЛЯ ROA

*PhD Ханнаев Шерзод*  
Tashkent International University

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу показателя рентабельности активов (ROA) при определении эффективности коммерческих банков Узбекистана. Эффективность банков важна для стабильности финансовой системы и экономического роста. В исследовании на основе статистических данных была проанализирована деятельность коммерческих банков страны в 1999-2023 годах, а также изучены различия в уровнях эффективности в зависимости от формы собственности банков. Хотя показатель ROA государственных банков оказался низким по сравнению с частными и иностранными банками, частные банки показали самый высокий уровень эффективности. Кроме того, было отмечено, что нестабильность банковской деятельности и влияние пандемии негативно сказались на эффективности. Результаты исследования позволяют предложить практические рекомендации по совершенствованию деятельности коммерческих банков и эффективному использованию ресурсов.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, показатели эффективности, доходы, прибыль, активы, проценты.

## ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN USING THE ROA INDICATOR

PhD Xannayev Sherzod  
Tashkent International University

**Annotation.** *This article analyzes the return on assets (ROA) indicator in determining the efficiency of commercial banks in Uzbekistan. Bank efficiency is important for the stability of the financial system and economic growth. The study analyzed the activities of commercial banks in the country in 1999-2023 based on statistical data, and also examined the differences in efficiency levels depending on the type of ownership of banks. Although the ROA of state-owned banks was low compared to private and foreign banks, private banks showed the highest level of efficiency. In addition, it was noted that the instability of banking activities and the impact of the pandemic negatively affected efficiency. The results of the study make it possible to offer practical recommendations for improving the activities of commercial banks and the efficient use of resources.*

**Keywords:** *commercial banks, performance indicators, income, profit, assets, interest.*

### Kirish.

Samaradorlik tushunchasi iqtisodiyotda eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Davlatlar, korxonalar yoki insonlar o'z faoliyatlarini qanchalik samarali bajarishiga qarab, iqtisodiy tizim ularni mukofotlaydi yoki aksincha jazolaydi. Bu tushuncha, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida kuchli raqobat mavjud bo'lgan holatlarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki kuchli raqobat sharoitida samarasizlikka yo'l qo'ygan ishtirokchilar bozorni tark etishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat xalqaro bozorda, balki mahalliy bozorda ham bir xil darajada ta'sir ko'rsatadi. Samaradorlikning pastligi nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishiga, balki resurslarning isrof bo'lishiga olib keladi. Shu sababli samaradorlik masalasi davlat siyosatida, korxonalar boshqaruvida va hatto shaxsiy darajada ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Samaradorlikni belgilashda uning mezonlari va ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish kerak. Samaradorlik ko'rsatkichi menejerlarning korxonalar faoliyatini qanchalik natijador boshqara olganini aniqlash imkonini beradi. Menejerlar o'z qarorlari orqali korxonalar faoliyatining natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Ularning qarorlari korxonalar ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan turli resurslar va omillarni qanday shaklda boshqarayotganiga bog'liq bo'ladi. Samaradorlikni oshirish uchun menejerlar mavjud resurslardan eng maqbul va optimal tarzda foydalanishni ta'minlashlari zarur. Bu jarayonda samaradorlikni oshirish bo'yicha o'zaro bog'liq omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mehnat resurslari, kapital, texnologiya va boshqaruv samaradorligi o'zaro ta'sir ko'rsatadi va ushbu omillarni muvozanatda saqlash orqali korxonaning umumiy samaradorligini oshirish mumkin.

Samaradorlikning o'lchovi korxonaning resurslardan foydalanish natijasida qancha mahsulot ishlab chiqarilganini yoki qancha xizmat ko'rsatilganini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonda texnologik innovatsiyalar, mehnat unumdorligi, malakali kadrlarni jalb qilish va ularning rivojlanishi kabi omillar samaradorlik darajasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, samaradorlikni oshirishning eng muhim yo'llaridan biri bu raqobatbardoshlikni ta'minlashdir. Korxonalar bozor sharoitida raqobat ustunligini qo'lga kiritish uchun samaradorlikni doimiy ravishda oshirib borishlari lozim.

Davlat darajasida esa samaradorlikni oshirish iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Samarali boshqaruv siyosati va iqtisodiy muhitni yaxshilash orqali davlat korxonalar va tashkilotlarni samaradorlikka undaydi. Shu bilan birga, samaradorlikni

rag'batlantiruvchi mexanizmlarni, masalan, soliq imtiyozlari, davlat investitsiyalari yoki texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan dasturlarni joriy qilish muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada biz O'zbekiston tijorat banklari samaradorligini aktivlardan foydalanish ko'rsatkichi ROA ko'rsatkichi orqali tahlil qilamiz. Banklar samaradorligi moliyaviy tizim barqarorligi va iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega. Banklarning samarali faoliyati resurslarni optimal taqsimlash, kreditlash jarayonlarini yaxshilash va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Ko'plab tadqiqotlar ROAga turli omillar ta'sir qilishini aniqladi. Operatsion xarajatlarning operatsion daromadga nisbati (BOPO) va muammoli kreditlar (NPL) ROAga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan (Vernanda & Widyarti, 2016; Yatiningsih & Chabachib, 2015). Kapitalning etarlilik koeffitsienti (CAR) ROAga ijobiy (Yatiningsih & Chabachib, 2015) va salbiy (Vernanda & Widyarti, 2016) ta'sir ko'rsatdi. Spred nisbati, kredit-depozit nisbati va foizsiz daromadlar Hindistondagi davlat sektori banklari uchun ROA ning bashorat qiluvchi omillari ekanligi aniqlandi (Mahajan va boshq., 2012). Bank hajmi aralash natijalarni ko'rsatdi, ba'zi tadqiqotlar ijobiy ta'sir ko'rsatdi (Yatiningsih & Chabachib, 2015) va boshqalar sezilarli ta'sir ko'rsatmadi (Vernanda & Widyarti, 2016). Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank rentabelligi va aktivlar sifatining umumiy yaxshilanishi, ROA o'sishi va NPA ko'rsatkichlarining pasayishi (Gupta & Dongre, 2024).

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari faoliyati samaradorligi an'anaviy metodda ya'ni aktivlar rentabelligi orqali baholandi hamda tahlil qilindi. **Aktivlar Rentabelligi (ROA)** ko'rsatkichi bankning sof foydasining jami aktivlarga nisbati orqali hisoblanadi va bank aktivlaridan qanchalik samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston tijorat banklari samaradorligini baholash uchun 1999-2023 yillarda mamlakatimiz hududida faoliyat yuritgan barcha tijorat banklari tanlandi. Samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar banklarning yillik hisobotlaridan olindi. Banklar samaradorligi mulkchiligiga ko'ra 4 ta guruhga ajratilgan holda tahlil qilindi. Birinchi guruhdagi banklar davlat bevosita egalik qiluvchi banklar bo'lib, ushbu banklardagi davlat ulushi 100%. Ikkinchi guruhga davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar, ya'ni davlat ulushi 100% bo'lmagan va davlat ulushi ayrim qo'mita yoki vazirliklar orqali bo'lgan tijorat banklari kiritildi. Ushbu guruhga kiruvchi banklar umumiy holda aksiyadorlik tijorat banklari deb nomlandi. Uchinchi guruhdagi banklar xususiy banklar bo'lsa, to'rtinchi guruhdagi banklar xorijiy kapital ishtirokidagi banklardir.

Aktivlarga nisbatan daromad bankning umumiy aktivlarga nisbatan qanchalik foyda keltirishini o'lchaydi. ROA ko'rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$ROA = \left( \frac{\text{Sof Foyda}}{\text{Umumiy Aktivlar}} \right) \times 100$$

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqoridagi formula orqali mamkatamizda 1999-2023 yillarda faoliyat yuritgan bankarning ROA ko'rsatkichi hisoblab chiqildi. Quyidagi jadvalda ushbu banklarning ROA ko'rsatkichi tasviriy statistikasi keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridagi o'rtachalar tahlilidan boshlaydigan bo'lsak, umumiy tahlil davridagi o'rtacha ROA ko'rsatkichi 2.96% ga teng bo'lgan bo'lsa, xususiy banklar hamda xorijiy banklarning ROA ko'rsatkichi tahlil davrida o'rtachadan yuqori darajada bo'lgan. Xususiy banklar eng yuqori darajadagi ROAga ega bo'lgan bo'lsada, ularning medianasi bilan orasidagi farqi ham eng yuqori darajada.


1-jadval

## ROA ko'rsatkichi tasviriy statistikasi, 1999-2023 yillar

Guruh	Soni	O'rtacha	Std.og'	Min.	25%	50%	75%	Maks.
Davlat tijorat banki	107	1.08	7.06	-49.76	0.48	1.18	2.02	30.22
Aksiyadorlik tijorat banki	218	2.32	2.12	-3.83	0.93	1.98	3.25	11.99
Xususiy tijorat banki	251	4.18	5.31	-20.54	1.45	3.14	5.84	29.73
Chet el banki	95	3.31	5.20	-13.28	1.48	2.59	4.71	29.30
<b>Barcha Banklar</b>	<b>671</b>	<b>2.96</b>	<b>4.99</b>	<b>-49.76</b>	<b>1.00</b>	<b>2.27</b>	<b>4.20</b>	<b>30.22</b>

Bu shundan dalolat beradiku, xususiy banklar ROA ko'rsatkichi taqsimoti chap tomonga qiya bo'lib, o'rtachadan past qiymatlardagi ROAga ega bo'lgan xususiy banklar ko'proq ekanligini anglatadi. Tahlil davrida davlat tijorat bankari eng past darajadagi ROA ko'rsatkichiga ega bo'lgan holda, eng yuqori darajadagi standart og'ishga ega bo'lgan. Bu o'z-o'zidan davlat tijorat banklarining ROA ko'rsatkichi tahlil davrida yuqori darajadagi tebranuvchanlikka ega bo'lganligini ko'rsatadi. Ushbu mulkchilik shakliga ega banklar tahlil davrida minimum qariyb -50% maksimum 30% gacha bo'lgan oraliqda tebrangan. Eng past darajadagi tebranish aksiyadorlik tijorat banklariga tegishli bo'lib, ular qariyb -4% dan 12% gacha bo'lgan oraliqda tebrangan. Kvartillar tahliliga ko'ra kuzatuvlarning 50% qismida ROA ko'rsatkichi 1% dan 4.2% gacha oraliqda bo'lgan.


ROA ko'rsatkichining yillar kesimida va banklar mulkchilik shakliga ko'ra o'zgarishini tahlil qilish umumiy holatni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Quyidagi rasmda banklarning ROA ko'rsatkichi yillar kesimida o'zgarishi keltirildi. Rasmdan ko'rish mumkinki, tahlil davrining boshida hamda oxirida ROA ko'rsatkichi beqarorlashgan. Qolgan davrda ROA ko'rsatkichi barcha guruhdagi banklar uchun 0-5% gacha bo'lgan diapazonda tebranganligini ko'rish mumkin. Davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklar deyarli umumiy tahlil davrida eng past ko'rsatkichlarni qayd etgan. Ayniqsa pandemiya davrida kesin pasayish kuzatilgan.



1-rasm. ROA ko'rsatkichi o'zgarishi, 1999-2023 yillar

Yuqoridagi tasviriy statistikada ham ko'rganimizdek, rasmdan davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar tebranuvchanligi past darajada bo'lganligini hamda 2.5-5% atrofida tebranganligini ko'rish mumkin. Xususiy banklar ROA ko'rsatkichi ayrim istisnolarni hisobga olmaganda umumiy tahlil davrida o'rtacha olganda boshqa mulkchilik shakliga ega banklardan yaxshiroq natijalar ko'rsatgan. Bu o'z navbatida xususiy banklar aktivlardan samarali foydalanayotganligini anglatadi. Davlat ulushi mavjud banklar esa aktivlardan etarli darajada samarali foydalana olmayotganligini anglatadi.


Quyidagi rasm quti grafiki bo'lib, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar ROA ko'rsatkichi o'rtachasining qanchalik yuqori darajada volatillika ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida davlat bevosita egalik qiluvchi banklar tomonidan aktivlarni boshqarish qanchalik betartib ravishga amalga oshirilganini ko'rsatadi. Bu yerda ham prinsipal-agent mummosi tufayli davlat banklarining menejerlari bank aktivlarini samarali boshqarishdan manfaatdor bo'lmaganligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalar muhim hisoblangan bo'lishi mumkin.



**2-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra o'rtacha ROA ko'rsatkichi, 1999-2023-yy.**


Banklarning mulkchilik shakliga ko'ra yillar kesimida quyidagi heapmap asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ko'rish mumkinki, umumiy bank bozoridagi aktivlar daromadliligi yil o'tgan sayin kamaymoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda ranglarning ko'klashgani bank bozoridagi aktivlar daromadliligini oshirish barcha mulkchilik shakliga ega banklar uchun qiyin kechmoqda. Ayniqsa davlat ulushi mavjud banklar sezilarli tarzda kamroq ROAga ega bo'lmoqda. Pandemiya davridan boshlab banklar aktivlarining daromadlilik darajasi sezilarli pasaygan. Pandemiya davrida xorijiy banklarda ham aktivlardan samarali foydalanish darajasi tushgan.

Nega aktivlardan samarali foydalanish darajasi butun butun bank tizimida tushib bormoqda degan savolga disserttsiyaning keying qismlarida javob topishga harakat qilamiz.



3-rasm. ROA ko'rsatkichi heatmapi

Kuzatuvlardan chetki kuzatuvlarni tashlab yuborgan holda ROA ko'rsatkichining taqsimotini tahlil qilamiz. Quyidagi rasmdan ko'rish mumkinki, asosiy kuzatuvlar musbat qiymatlarga ega bo'lgan bo'lib, kam sonli kuzatuvlar manfiy qiymatlarni qabul qilgan. Manfiy qiymatlar banklarning zara bilan yilni yakunlaganini anglatadi. Rasmdan ko'rish mumkinki, kuzatuvlarning ko'pchiligi 0-2.4% olarig'ida bo'lgan. ROA ko'rsatkichi 6% dan yuqori bo'lgan kuzatuvlar soni keskin kam ekanligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, Oz'bek bank tizimi uchun 5% dan yuqori ROAga ega bo'lish noyob hisoblanadi. ROAning bunday qiymati boshqa rivojlangan davlatlar misolida ham shunday past qiymatga ega bo'ladi.



4-rasm. ROA ko'rsatkichi taqsimoti (esktrim kuzatuvlarsiz)



ROA ko'rsatkichi o'rtachasining mulkchilik shakliga ko'ra banklarda farqli ekanligi test qilib ko'rildi. Test natijalariga ko'ra ROA ko'rsatkichi mulkchilik shakliga ko'ra banklarda turlicha ekanligi empirik isbotlandi. Test statistikdagi Wald Chi-squared qiymati 32 ga teng bo'lib, bu o'rtacha ROAlar tengligi bo'yicha asosiy gipotezani statistik jihatdan ahamiyatli darajada rad etilishiga olib keladi. Biz shuningdek, 2017-yilgacha bo'lgan davr uchun va undan keyingi davr uchun o'rtacha ROA ko'rsatkichlari mulkchilik shakliga ko'ra banklar o'rtasida farqli ekanligini ham test qilib ko'rdik. Test natijalari butun to'plam kabi xulosalarni taqdim etdi.

Qaysi guruhlardagi banklar o'xshash ROAlarni taqdim etmoqda degan savolga javob berish uchun, biz mulkchilik shakliga ko'ra 4 ta guruhdan 6 ta juftlik hosil qilgan holda qiyosiy tahlilni amalga oshirdik. Quyidagi jadvalda banklarning uchta davrdagi o'rtacha ROA ko'rsatkichlari keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, o'rtacha ROA ko'rsatkichi 2017-yildan keyin sezilari darajada pasaygan. Ayniqsa davlat bevosita egalik qiluvchi banklar ROA ko'rsatkichi manfiy bo'lgan.

2-jadval

## ROA ko'rsatkichining o'zgarishi

Guruh	[1999-2023]	[1999-2017]	[2017-2023]
Davlat tijorat banklari	1.08	2.22	-0.90
Aksiyadorlik tijorat banklari	2.32	2.36	2.20
Xususiy tijorat banklari	4.18	4.48	3.51
Xorijiy tijorat banklari	3.31	3.74	2.39

Ushbu o'rtacha ROA ko'rsatkichlari statistic jihatdan ahamiyatli darajada bir-biridan farq qilishi yuqoridagi testdan bildik. Endi qaysi guruhdagi banklar o'zaro statistic jihatdan bir xil ROAga ega bo'lganligini aniqlaymiz.

3-jadval

## Mulkchilik shakliga ko'ra ROA tahlili, 1999-2023 yillar

Guruhlar		Farq	Std.og'	P-qiymat
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	1.24	0.58	0.032
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	3.10	0.56	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	2.23	0.69	0.001
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	1.86	0.45	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	1.00	0.60	0.096
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	-0.86	0.59	0.143

Test natijalariga ko'ra xorijiy banklar o'rtacha ROA ko'rsatkichi xususiy banklar va davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari o'rtacha ROA ko'rsatkichidan statistic jihatdan ahamiyatli darajada farq qilmaydi. Ammo, xorijiy banklar va davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar o'rtacha ROA ko'rsatkichi kuchsiz shaklda bir-biriga o'xshash. Davlat bevosita egalik qiluvchi banklar boshqa guruhdagi banklardan ROA bo'yicha statistic jihatdan ahamiyatli darajada farq qiladi. Xuddi shunday statistic farq xususiy banklar va aksiyadorlik tijorat banklari bilan kuzatilgan.

## 4-jadval

## Mulkchilik shakliga ko'ra ROA tahlili, 1999-2016 yillar

Guruhlar		Farq	Std.og'	P-qiyamat
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	0.15	0.64	0.819
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	2.26	0.63	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	1.53	0.76	0.045
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	2.12	0.48	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	1.38	0.65	0.033
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	-0.74	0.64	0.248

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tahlil davrining birinchi qismida davlat ulushi bevosita yoki bilvosita shaklda mavjud bo'lgan banklar ROA ko'rsatkichi o'rtacha olganda statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq qilmagan. Shuningdek, xususiy va xorijiy banklarning o'rtacha ROA ko'rsatkichi ham statistik jihatdan sezilarli darajada farqlanmagan. Biroq, boshqa juftliklar bilan ROA o'rtachalari statistik jihatdan sezilarli darajada farq qilgan va o'rtachalar tengligi bo'yicha gipoteza rad etilgan. Yana bir ko'zga tashlangan holat, xususiy banklar bilan davlat ulushi banklar ROA ko'rsatkichlari o'rtachasi orasida o'rtacha olganda 2% dan yuqori farq mavjud bo'lgan. Xorijiy banklar bilan davlat ulushi mavjud banklar ROA o'rtachasi orasidagi farq esa o'rtacha olganda 1.5% atrofida bo'lgan. Ya'ni, ushbu davrda xususiy banklar boshqa mulkchilik shakliga ega banklardan ko'ra aktivlardan samarali tarzda foydalangan.

## 5-jadval

## Mulkchilik shakliga ko'ra ROA tahlili, 2017-2023 yillar

Guruhlar		Farq	Std.og'	P-qiyamat
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	3.10	1.17	0.008
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	4.40	1.12	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	3.29	1.39	0.019
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	1.30	0.97	0.181
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	0.18	1.27	0.885
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	-1.12	1.23	0.365

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan bank sohasidagi islohotlar banklar ROAsida qanchalik aks etganini ko'rsatadi. Amalga oshirilgan testlarga ko'ra, davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari ROA ko'rsatkichi ushbu davrda boshqa banklardan sezilarli darajada orqada qolganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ROA o'rtachalari orasida farq oldingi davrdan ko'ra sezilarli darajada kattalashgan va u statistik jihatdan o'rtacha olganda 3% dan yuqori bo'lgan. Ammo, davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari islohotlar natijasida xususiy va xorijiy banklar ROA ko'rsatkichidan o'rtacha olganda statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq qilmagan. Bu o'z navbatida ushbu banklar aktivlardan samarali foydalanish bo'yicha boshqa raqobatchilariga yetib olayotganini anglatadi. Ayniqsa, ushbu mulkchilik shakliga ega banklar xorijiy banklar bilan ROA bo'yicha statistik jihatdan deyarli farqsiz faoliyat olib borishgan. Xususiy banklar esa xorijiy banklar bilan statistik jihatdan olganda aktivlardan bir xil samarali foydalanishgan bo'lsada, oldingi davr bilan solishtirganda farq kattalashayotganini ko'rish mumkin. Ammo, standart og'ishning yirikligi bu samarali boshqarish barcha xususiy banklar uchun xarakterli emasligini anglatadi. Standart og'ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi yillardan ularning oldingi davrlardan va umumiy tahlil davridan sezilarli darajada kattalashganini ko'rish mumkin. Bu amalga



o'shirilayotgan iqtisodiy islohotlar, kuchayayotgan raqobat muhiti va texnologik o'zgarishlardan barcha banklar bir xil foydalana olmayotganini anglatadi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekiston tijorat banklarining 1999-2023 yillar davomida ROA ko'rsatkichi bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarning samaradorligi mulkchilik shakliga bog'liq holda sezilarli farq qilmoqda. Davlat ulushi mavjud tijorat banklari eng past samaradorlik darajasiga ega bo'lib, bu davlat banklaridagi menejmentning resurslardan samarali foydalanishdagi qiyinchiliklarini ko'rsatadi. Xususiyl banklar esa eng yuqori darajadagi samaradorlikni namoyon etgan bo'lsa-da, ulardagi natijalarning tebranuvchanligi xususiyl sektorning ichki xilma-xilligini anglatadi. Shu bilan birga, pandemiya davrida barcha banklar samaradorligi pasaygani kuzatildi. Tadqiqot natijalari bank faoliyatini yaxshilash bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari suradi: davlat banklarida menejment tizimini takomillashtirish, xususiyl sektorning eng yaxshi tajribalaridan foydalanish va pandemiyadan keyingi moliyaviyl siyosatni yanada optimallashtirish. Ushbu xulosalar banklar samaradorligini oshirishga qaratilgan kelgusi islohotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/ Jumepamypa / Reference:**

Gupta, Dr O. P. and Neetu Dongre. "COMPARATIVE ANALYSIS OF THE FINANCIAL PERFORMANCE OF THE BANKS." *International Journal of Research in Commerce and Management Studies* (2024): n. pag.

Mahajan, Poonam et al. (2012) "ROA Performance of Public Sector Banks in India." *Social Science Research Network*: n. pag.

Vernanda, Shinta Dewi and Endang Tri Widyarti (2016). "ANALISIS PENGARUH CAR, LDR, NPL, BOPO, DAN SIZE TERHADAP ROA (Studi pada Bank Umum Konvensional yang Terdaftar di Bursa Efek Indonesia Periode 2010-2015)." *Diponegoro Journal of Management* 5: 1040-1052.

Yatiningsih, Nur Fakhri and M. Chabachib M. Chabachib. (2015) "ANALISIS PENGARUH BOPO, LDR, NPL, SIZE, CAR DAN NIM TERHADAP ROA (Studi pada Bank Umum Konvensional Yang Listing di Bursa Efek Indonesia Periode 2009-2013)." *Diponegoro Journal of Management*: 485-494.